

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI BERISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Nurliboyeva Gulnora Abdullayevna

Jizzax viloyati Do'stlik tumani MTB tasarrufidagi

13- son DMTT tayyorlov guruhi tarbiyachisi

Anotatsiya: *Yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy, islohlashgan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi talab etiladi. Har bir ota-ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak ma'rifatli, mahoratli, ijodkor tarbiyachi tarbiyasiga berishni istaydi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bo'lajak tarbiyachilarga talabalik davridan boshlab, maktabgacha ta'limning asl mohiyati bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini, bola tarbiyasining maqsadini, bola ruhiyatini rivojlantirish qoidalariga amal qilishni o'rgatadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasasida iqtisodiy tushunchalarni berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari xususida so'z yuritildi.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim; iqtisodiyot; pedagogik texnologiya.*

Sir emaski, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ilk iqtisodiy bilimlar berish asosan o`rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berish, ularning mantiqiy fikrlash doiralarini o`stirish, ishbilarmonlik, tejamkorlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. O`rta guruh bolalariga ilk iqtisodiy tushunchalarni berish quyidagi bo`limlar: Inson va uning ehtiyojlari; Inson va iqtisod; Pul, mahsulotlarni sotib olish va ayirboshlash asosida tashkil etiladi. Inson va uning ehtiyojlari haqida tushuncha berishda, inson uchun zarur bo`lgan hayotiy ehtiyojlar (kiyim-kechak, oziq-ovqat va hokazo), tejamkorlik haqida (suvni, vaqtni tejash), maktabgacha ta'lim muassasalaridagi va uydagi jihozlardan (o`yinchoq, kitob va hokazo) tejamkorlik bilan munosabatda bo`lish vaqt haqida ilk tushuncha berish orqali vaqt tejash haqida tushunchalar beriladi. Bu tushunchalarni berish orqali tevarak-atrofdagi buyum va xomashyolar, ularning xilma-xil sifatlariga, uy-ro`zg`or buyumlari (ko`rpa-to`shak, ko`rpacha, yostiq, choyshab, idish- tovoqlar) ularni bir-biridan farqlash va umumlashtirish, ustki kiyimlar turlari haqida tasavvurlarini aniqlash va kengaytirishadi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg`ulotlarida "Non va suv biz uchun aziz", "Uyro`zg`or buyumlari", "Oshxonona buyumlari" kabi mavzularda suhbatlar o`tkaziladi. Inson va iqtisod haqida tushuncha berishda mehnat inson hayotidagi asosiy faoliyat ekanligi, kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash, o`zbek xalqining milliy hunarmandchiligi, duradgor mehnati, dehqon mehnati haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bolalar o`z tarbiyachisi, enaga, oshpaz, haydovchi, bog`bon mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissi shakllantiriladi. Mehnat qurollariga nisbatan ehtiyot bo`lib, tejamkorona munosabatda bo`lishga tarbiyalanadi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg`ulotlarida quyidagi: "Duradgor mehnatini kuzatish", "Dehqonlar mehnati haqida", "Haydovchi mehnati haqida", "Bog`bon", "Oshpaz", "Quruvchi" mehnati haqida suhbatlar o`tkaziladi. Bolalar xo`jalik mehnat qurollari bilan yaqindan tanishtiriladi. Pul-mahsulotlarni sotib olish va ayirboshlash bo`limida bolalarga bozor, uning turlari,

sotuvchi, xaridor, bozorda oldi-sotdi ishlarini amalga oshiruvchi vosita - pul to'g'risida tushuncha beriladi. Milliy pul, uning turlari, vazifalari haqida bolalarga iqtisodiy bilim beriladi. Katta guruhda quyidagi: Inson va uning hayotiy ehtiyojlari; Inson va iqtisodiyot; Pul, narx mahsulotlari sotib olish va ayirboshlash; Ishlab chiqarish, mehnat faoliyati bo'limlar asosida iqtisodiy bilim beriladi, bolalarga iqtisodiy ongini shakllantirish, mustaqil fikr yurita olish, puldan to'g'ri foydalana olish, pul qiymati, milliy valyutamiz, davlatimiz rivojidadagi kuchi, xizmati haqida tushuncha beriladi.

Maktabgacha yoshda iqtisodiy ta'lim muhitining mazmuni quyidagilardan iborat: obyektiv muhit (o'yinga asoslangan iqtisodiy muhit yaratish); ijtimoiy -"qiziqishlariga atrof-muhit (otanolalar, ta'lim jamoasi MTT), voqea-bilim muhiti (qiziqarli ekskursiyalar, mashhur odamlar bilan uchrashuvlar) va axborot muhit (jumboq, illyustratsiyalar, do'konlar, banklar, xizmat markazlari, shahar sanoat korxonalarini xaritasi, tanga namunalari). Tarbiyachi ijtimoiy agentlarning ma'lumotlarini professional tarzda qayta ishlab, ushbu ta'sirni maqsadli yo'naltira olishi, ijtimoiy rivojlanish holatini pedagogik holatga aylantira olishi, yetakchi axloqiy va iqtisodiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim muhitini yarata olishi lozim. Iqtisodiy ta'limning yana bir sharti-oila, odamlar, jamiyat va jamiyatning iqtisodiy ahvoliga oid bolalar faoliyati turlarini (o'yin, mehnat, bilim) tashkil etish va to'ldirish, shu asosda ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning ijobiy me'yorlari va qadriyatlariga bilimli qiziqishni rivojlantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi yuzasidan quyidagi firirlarni kiritib o'tish o'rinli hisoblanadi. Iqtisodiy tarbiya shaxsning barkamol shakllanishining zarur shartidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalash pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Bozor iqtisodiga o'tayotgan bir sharoitda va keyingi rivojlanishda ham bolalarning iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhimdir. Bu sohada hukumatimiz g'amxo'rlik ko'rsatmoqda va soha mutaxassislari bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishdan asosiy maqsad bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitilib, ilmiy asoslab kelingan. Bu borada Al-Xorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga puxta bo'lishi kerak. Shunda u o'z mehnatining (o'zgalarning ham) natijalarini o'lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonini amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin. 1. Kashf etmoq- bu metod orqali bolalarning kashfiyotchilik qobiliyati, fantaziya kuchi oshiriladi. Bolalarga "Agarda men...", "Agarda..." kabi boshlang'ich qo'zg'atuvchi savol tashlab qo'yiladi. Bolalar o'zlarining tasavvurlariga suyanib jarayonni davom ettirishlari lozim bo'ladi. Masalan, "Agarda men suv bo'lib qolsam...", "Agarda yer yuzida har kuni quyosh chiqib turmasa...", "Agarda suv bo'lmasa..." kabi. 2. Obrazli rasmlar- bu metodda ob'ekt hissiy-obrazli tadqiq qilinadi. Bola tanlangan ob'ektni tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning o'z tasavvuridagi matnli yoki grafik ko'rinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan ko'zlangan maqsad bolalarda obrazli tafakkurni, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ularning tasavvuri, xayoloti va har bir buyumlardan o'z o'rnida

foydalanish yuzasidan mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. 3. Agglyutinatsiya – bu metod orqali bolalar o'z tasavvurlari orqali turli, haqiqatdan yiroq bo'lgan predmet yoki obrazlarni yaratishlari mumkin. Misol uchun muzlik davri, mavugli ham agglyutinatsiya mahsulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ubaydullayeva. Z. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish. Toshkent.2022.
2. To'qmirzayeva. I. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berishning o'rni va ahamiyati. Toshkent.2006.
3. Saipova.G. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatssion texnologiyalardan foydalanish zarurati. Shahrizabz. 2022.